



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
_____ning

20__-20__-o'quv yili 5-sinf
o'zbek tili fanidan IV chorak uchun

DARS
ISHLANMALAR

20__-20__-o‘quv yili 5-sinf o‘zbek tili fanidan IV chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Uyqu qanday paydo bo‘ladi?	1		
2.	Fazogirlar kundaligi	1		
3.	Nimaga?	1		
4.	Gul o‘stirganmisiz?	1		
5.	Tabiat hodisalari	1		
6.	Ranglar yettitami?	1		
7.	Ekskursiya-1	1		
8.	Ekskursiya-2	1		
9.	Takrorlash	1		
10.	Nazorat ishi-7	1		
11.	Xatolar ustida ishlash	1		
12.	Boshqotirma nima?	1		
13.	Mahsulotlarni nega quritadilar?-1	1		
14.	Mahsulotlarni nega quritadilar?-2	1		
15.	Dunyo tillari-1	1		
16.	Dunyo tillari-2	1		
17.	Shifokor nega oq xalat kiyadi?	1		
18.	Ta’tilda-1	1		
19.	Ta’tilda-2	1		
20.	Esdalik daftari	1		
21.	Adabiy o‘qish (K. Turdiyeva hayoti va ijodi)	1		
22.	Adabiy o‘qish (K. Turdiyeva she’rlari)	1		
23.	Nazorat ishi-8	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Uyqu qanday paydo bo'ladi?

Maqsadlar:

- ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, o'zbek tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.
- tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.
- rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.


Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:



The infographic consists of several yellow speech bubbles containing text, accompanied by illustrations of a crescent moon, a teddy bear, a clock, and pillows.

Nega tunda uxlaymiz? Bu savol sizni ham qiziqtirganmi? Buning javobi juda oddiy.

Bizning tanamizda melatonin va kortizol gormonlari mavjud. Ular uyqumiz uchun javobgardir. Melatonin – uyqu gormoni.

Qorong'i bo'lganda melatonin gormoni tanani tinchlantira boshlaydi. Tana dam olishga tayyorlanadi va odam uxlaydi.

Tong otganda tana kortizol gormonini ishlab chiqaradi. U bizni uyg'otadi. Kortizol gormoni tetiklikni oshiradi.

Agar siz kechasi uxlamasangiz, tanangiz melatonin o'miga ko'proq kortizol ishlab chiqara boshlaydi. Bu esa tananing dam olmasligiga sabab bo'ladi. Natijada odam charchagan holda uyg'onadi.

Sog'lom bo'lish uchun bir kunda 8 soat uxlash kerak. Agar doim 8 soatdan kam uxlasangiz, sizda turli kasalliklar paydo bo'ladi. Kechasi uyquning buzilishi immunitet susayishiga olib keladi.

3. Gapiring. To'g'ri / noto'g'ri



1	Melatonin – uyqu gormoni.	*	*
2	Kortizol gormoni tanani tinchlantiradi.	*	*
3	Sog'lom bo'lish uchun bir kunda 8 soat uxlash kerak.	*	*
4	Tongda tana melatonin gormoni sababli tetiklashadi.	*	*
5	Kechasi uyquning buzilishi immunitet susayishiga olib keladi.	*	*

Ruxsat mazmunidagi “mumkin” modal so‘zi

Bolalar, bizning darsimiz tugadi, endi siz uyingizga ketishingiz mumkin.

uxlamoq+-sh/ish+...+mumkin		So'roq	Bo'lishsiz
Men	uxlash-im mumkin	uxlashim mumkinmi?	uxlashim mumkin emas
Sen	uxlash-ing mumkin	uxlashing mumkinmi?	uxlashing mumkin emas
U	uxlash-i mumkin	uxlashi mumkinmi?	uxlashi mumkin emas
Biz	uxlash-imiz mumkin	uxlashimiz mumkinmi?	uxlashimiz mumkin emas
Siz	uxlash-ingiz mumkin	uxlashingiz mumkinmi?	uxlashingiz mumkin emas
Ular	uxlash-lari mumkin	uxlashlari mumkinmi?	uxlashlari mumkin emas



O‘qing. Fe’llarni namunadagidek tuslang.

Saida: Oyijon, ovqatimni yeb bo‘ldim.

Onasi: Agar (sen) xohlasang, (sen) yana ovqat (yemoq) yeyishing mumkin.

Saida: Yo‘q, to‘ydim. Men oshxonada sizga (yordam bermoq) mumkinmi?

Onasi: Ha, albatta, sen (yordam bermoq) mumkin.

Saida: Menga yana biror ish buyurasizmi?

Onasi: Yo‘q. Sen bermalol darslaringni (tayyorlamoq) mumkin.

Saida: Men kompyuterdan (foydalanmoq) mumkinmi?

Onasi: **Hali shifokor ruxsat bermadi.**

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Qaysi gormon uyquni chaqiradi va qaysi gormon uyquni qochiradi?
2. Ko‘p uxlashning qanday zarari bor? Siz bu haqda nimalarni bilasiz?
3. Immunitet nima?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Mumkin va mumkin emas so‘zlari ishtirok etgan 10 ta gap tuzib keling.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Fazogirlar kundaligi

Maqsadlar:

- ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, o'zbek tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.
- tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.
- rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:

Siz koinot odamlari haqida eshitganmisiz? Koinot odamlari fazogirlardir. Fazogirlar vaqtincha koinotda ishlaydilar. Ular koinotni o'rganuvchi kishilardir. Fazogirlar Yerdagi odamlarday kun tartibiga amal qiladilar. Ular ham ovqatlanadilar, ishlaydilar va uxlaydilar. Lekin fazogirlarning ovqatlanishi va uxlashi biroz boshqacha.



Fazogirlarning ovqatlari yengil bo'ladi, chunki ovqat tez va oson hazm bo'lishi kerak. Fazogirlar tarkibida suv bo'lmagan ovqatlarni yeydilar. Bunday ovqatlar yaxshi holatda saqlanadi va chiqindisiz bo'ladi. Kosmik kemaning ichida tortishish kuchi yo'q, shuning uchun u yerda ovqatlanish juda qiyin.

Kosmik kemalarda uyqu qoplari bor. Ular devorga yopishtirilgan. Fazogirlar ana shu uyqu qoplarida uxlaydilar. Uyqu qoplarining muhim vazifasi bor. Ular fazogirni jarohat olishdan himoya qiladi. Fazogirlar ko'pincha 6 soat uxlaydilar.



2. Gapiring. To'g'ri / noto'g'ri



1	Fazogirlar kosmik kemalarni yasaydilar.	*	*
2	Fazogirlar tarkibida suv bo'lmagan ovqatlarni yeydilar.	*	*
3	Kosmik kemalarda ovqatlanish oson.	*	*
4	Fazogirlar uyqu qoplarida uxlaydilar.	*	*
5	Fazogirlar doim kosmosda yashaydilar.	*	*

Berilgan kalit so'zlar yordamida bo'sh kataklarga qanday so'z mosligini toping.

Koinot odamlari	Koinotni o'rganadilar	Suvsiz	Chiqindsiz
Vaqtincha koinotda yashaydilar	?	Yaxshi saqlanadi	?

Devorga yopishtirilgan	Jarohatlanishdan asraydi
8 soat	?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna:

Fazogirlar fazoga skafandrsiz chiqishlari mumkin emas.

1. Fazogirlar fazoga skafandrsiz (chiqmoq).
2. Fazogir yerga qaytgach, biroz vaqt (yurmoq).
3. U koinotda o'zidan chiqindi (qoldirmoq).
4. Sen maxsus tayyorgarliksiz fazoga (uchmoq).
5. Biz uyqu sumkalarisiz (uxlamoq)

mumkin
yoki
mumkin emas

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Tasavvur qiling, siz fazogirsiz va yangi sayyora kashf etdingiz.

Sayyorangizning o'ziga xos qanday xususiyatlari bo'lishini xohlaysiz? Unga nom bering va rasmini chizing.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

49 listdan iborat o‘zbek tili fanidan 5-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**